

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



"Tasdiqlayman"

Rektori

M.T.Xodjiyev

2024-yil

№ 1.07 - 2024 y



IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI

FALSAFAGA KIRISH

FAN SILLABUSI

(FK1106)

Bilim sohasi:	200 000 - San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220 000 - Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220500 – Falsafa

Guliston – 2024

© Ushbu hujjat Guliston davlat universiteti mulki hisoblanadi va uni oluvchilar uchun maxfiy bo'lib, to'liq yoki qisman nusxa ko'chirilishi, tarqatilishi yoki ko'paytirilmasligi yoki uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Ushbu materialni ko'paytirish, tarqatish, nusxalash, oshkor qilish, o'zgartirish, tarqatish yoki nashr etishning har qanday shakli qat'iyan man etiladi.

Kun	
Avgust 2024	
	Tuzuvchi: Olimova – Ijtimoiy fanlar kafedrası v.b dotsenti, (PhD)
	Taqrizchilar: B.G'ofurov - Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Izoh: Ushbu fan sillabusi Kembrij universiteti, Manchestr universiteti, Texas Dallas universiteti va Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitet ta'lim dasturlari asosida takomillashtirildi.

Mundarija

FK1106: Falsafaga kirish

1. Fan tavsifi
2. Fanning dastlabki rekvizitlari.....
3. Fanning maqsadi.....
4. Ta'lim berish natijalari.....
5. Ta'lim berish usullari.....
6. Soatlar/Kreditlar.....
7. Fanning tarkibiy tuzilishi.....
8. Talabalar bilimini baholash.....
9. Adabiyotlar.....
10. Akademik talablar.....

1.Fan tavsifi

"Falsafaga kirish" fani bilim va ma'naviy madaniyatning qadimiy, ayni paytda navqiron sohalaridan biri. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Misr, Hindiston, Xitoy va Yunonistonda vujudga kelgan falsafa keyingi asrlarda dunyoqarashning barqaror shakliga aylandi. Inson tafakkuri bilan bog'liq savollarga javob izlash, dunyoqarashga doir savollarni qo'yish barcha faylasuflarning maqsadiga aylandi. Falsafaga kirish fanining o'zagini inson muammosi, uning dunyo bilan o'zaro munosabatlari, insonni dunyodagi o'rni va roli muammolari kabi ijtimoiy hodisalarni tashkil etadi. Falsafa dunyo haqidagi, inson borlig'ining mohiyati to'g'risidagi bilimlarning umumiy tizimini yaratish orqali inson dunyoqarashining nazariy asosi sifatida o'z mohiyatiga ega.

2.Fanning dastlabki rekvizitlari

Ushbu fanni o'zlashtirish uchun falsafa tarixi, dinshunoslik, mantiq, etika, estetika, ijtimoiy falsafa va falsafiy antropologiya fanlaridan zarur bilimlarga ega bo'lish talab etiladi.

3.Fanning maqsadi

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda dunyodagi ijtimoiy jarayonlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usi, to'g'ri fikrlash mahoratini va dunyoqarashini shakllantirishdan iborat. Nazariy bilimlar asosida ijtimoiy hodisa va jarayonlarga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi maqsadini aniqlashga imkon beradi.

4.Ta'lim berish natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

1. Falsafiy bilimning mohiyati, uning ma'naviy hayotning boshqa shakllari - din, fan, san'at, ahloq bilan mutanosibligi, falsafaning dunyoqarash funksiyasi va metodologik asoslari, dunyoning ilmiy va falsafiy manzarasi haqidagi fundamental tushunchalar, ratsionallik va irratsionallik haqida tasavvurga ega bo'lishi;
2. Falsafa va amaliyot birligi, ilmiy bilim xususiyatlari, fan taraqqiyotining asosiy bosqichlarini, tarix falsafasi va falsafa tarixini, faoliyat tushunchasi va uning hayot mezonini, global jarayonlar dialektikasini bilishi va ulardan foydalana olishi;
3. Bilimlarni mustaqil boyitib borishi, mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashning shakllanishida ijtimoiy-madaniy muhitning ta'sirini xisobga olishi, falsafani o'rganishda asosiy manbalar, adabiyotlardan foydalanishi, falsafiy masalalarni qo'yish va yechishda fikrlash maxorati, insoniyat ma'naviy taraqqiyotiga falsafiy madaniyatning ijobiy ta'sirini anglashi, ijtimoiy hodisa va jarayonlarni yoritishda falsafiy tahlilni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

5.Ta'lim berish usullari

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-studylar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual mustaqil ta'lim ishlari, loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

6.Soatlar/kreditlar

Ta'lim turi	Ma'ruza Soat	Seminar mashg'ulot Soat	Laboratoriya Soat	Mustaqil ta'lim Soat	Jami Soat/kredit
Kunduzgi	1-semestr uchun				
	36	36	0	108	180/6
Yillik jami	36	36	0	108	180/6

7. Fanning tarkibiy tuzilishi

№	Mavzular	Soat	Ma'ruza mashg'ulotida ko'riladigan masalalar	soat	Amaliy (seminar) mashg'ulot mavzulari	soat	Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari	Soat
1	1-mavzu. Qadimgi sivilizatsiyada germetik falsafaning paydo bo'lishi.	10	Qadimgi Misr sivilizatsiyasining asosiy yutuqlari. Qadimgi sivilizatsiyani o'rganish manbaalari	2	Qadimgi sivilizatsiyada germetik falsafaning vujudga kelishi.	2	Qadimgi sivilizatsiyani o'rganishning tarixiy ahamiyati.	6
2	2-mavzu. Mifologik ongning o'ziga xos xususiyatlari	10	Mifologiya eng qadimgi ma'naviy-madaniy shakli. Mifologiyaning antropomorfizm, obrazlilik, sinkretik, genetik simvoli, harakteri.	2	Mifologik ongning shakllanishi va uning ijtimoiy ahamiyati. Dunyoqarash tushunchasi va uni asosiy shakllari.	2	Mifologiya eng qadimgi ma'naviy-madaniyat shakli (esse).	6
3	3-mavzu. Natur falsafa va sofistlar.	10	Dastlabki falsafiy bilimlar rivoji. Fiziologlar va ularning birinchi asos haqidagi qarashlari.	2	Sofistikaning yevropa tafakkur uslubiga ta'siri.	2	Tabiatning stixiyali talqini, sababiyat g'oyasi, mumtoz Yunon falsafasida tafakkurning ratsionallashuvi.	6
4	4-mavzu. Falsafa – dunyoqarash shakli.	10	Dunyoqarashning mohiyati. Dunyoqarashning intellektual, emotsional va ruhiy asoslari	2	Dunyoqarash tushunchasi va uning asosiy shakllari. Falsafa dunyoqarash shaklidir.	2	Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Diniy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlari	6
5	5-mavzu. Falsafa:uning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli.	10	Falsafa tushunchasining kelib chiqishi. Falsafaning mazmuni va bosh vazifasi haqidagi qarashlar.	2	Falsafa:uning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli.	2	Falsafa shakllanishining asosiy bosqichlari.	6
6	6-mavzu. Falsafa va fan mutanosibligi.	10	Falsafa va fan mutanosibligi va farqi. Fanning mohiyati. Fan tushunchasining keng va tor ma'nolari.	2	Falsafa va fan mutanosibligining o'ziga xosligi.	2	Fan, falsafiy bilimlarning mohiyati.	6
7	7-mavzu. Falsafa madaniyatlar tizimida.	10	Madaniyatlar dialogi falsafiy dunyoqarashning mahsuli. Dunyoqarashdagi universallik madaniyatning asosi	2	Falsafa madaniyatning alohida shakli. Falsafa obrazi.	2	Alisher Navoiyning "Xamsa" asarining badiiy va falsafiy tahlili.	6
8	8-mavzu. Qadriyatlar falsafasi(aksiologiya)	10	"Qadriyat" tushunchasi va uning umumiy tasnifi. Qadriyatlar va baholar.	2	Qadriyatlar ierarxiyasi. Personolistik ontologizm.	2	Ijtimoiy munosabatlar va institutlar tizimida qadriyatlarining o'rni.	6
9	9-mavzu. Jamiyat haqidagi asosiy paradigmalar.	10	Jamiyat haqidagi falsafiy ta'limotlar tarixi. Jamiyat paydo bo'lishining ilmiy asoslari.	2	Individual ijtimoiy ong. Jamiyatda ijtimoiy inqilobning strukturasi.	2	Jamiyatning siyosiy asoslari. Jamiyatning siyosiy tizimi	6
10	10-mavzu. Sivilizatsiya va madaniyat	10	Jamiyat hayotiga sivilizatsiya ta'siri. Sivilizatsiya	2	Falsafa – madaniyatlar tizimida.	2	G'arb va Sharq sivilizatsiyasi. G'arb madaniyati.	6

			tushunchasi.					
11	11-mavzu. Tarix falsafasi.	10	Tarix mazmunini aniqlash borasidagi izlanishlar. Tarix falsafasiga oid qarashlar evolyutsiyasi.	2	Tarix falsafasining gneseologik yo'nalishlari, ontologik va aksiologik konsepsiyalari.	2	Tarix falsafasida tarixiy taraqqiyot g'oyasi.	6
12	12-mavzu. Falsafiy antropologiya	10	Inson falsafiy baxslarning bosh mavzusi. Falsafa tarixida insonning kelib chiqishi haqidagi ta'limotlar.	2	Falsafiy antropologiya (inson haqidagi ta'limot).	2	Hayotda insonning vazifasi, uning mohiyati.	6
13	13-mavzu. Faoliyat falsafasi.	10	Faoliyat tushunchasining mazmuni. Faoliyatning sotsiologik jihatlar.	2	Faoliyat falsafasi (prokseologiya).	2	Insonning falsafiy nuqtai nazardan o'rganishning zaruriyati.	6
14	14-mavzu. O'yin faoliyat sifatida.	10	Mehnat va o'yin faoliyat turi sifatida. Mehnatda begonalashuv.	2	Mehnat va o'yinni inson hayotidagi o'rni.	2	Ijodiy va noijodiy faoliyat. Ijodkor shaxs faoliyati.	6
15	15-mavzu. Ijtimoiy prognozlashtirish.	10	Muammolarni yechimini topishda ijtimoiy bashoratni o'rni. Bashorat – kelajak haqidagi g'oyalarni rivojlantiruvchi ijtimoiylikdir.	2	Prognozlashtirish tarixiy analogiya. Oldindan kelajakni prognoz qilish	2	Bashorat qilishda ekstropolyatsiya metodining ahamiyatini tushuntirish.	6
16	16-mavzu. Globallashuv metamorfozalari.	10	Globallashuv hodisasi va globalistika tushunchasining tahlili. Global jarayonlarni shakllanish tarixi.	2	Global muammonlarini hal qilishda falsafaning roli.	2	Globallik mezonlari. Global muammolarni hal qilishda xalqaro kuchlar birlashuvining ahamiyati.	6
17	17-mavzu. Global muammolarning tasnifi.	10	Global muammolarning tasnifi.	2	Global muammolarning tasnifi.	2	Globallashuvning falsafiy muammolarini hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar uyg'unligi.	6
18	18-mavzu. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash siyosati	10	Korrupsiya tushunchasining mazmuni va paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi. Korrupsiyaning shakllari. Korrupsiyaning shakllari va ularni bartaraf etish mexanizmlari.	2	Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro huquq normalarining O'zbekiston qonun hujjatlariga implementatsiya qilishning ahamiyati va uning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari.	2	Korrupsiya nima va u qachon paydo bo'lgan.	6
Jami		180		36		36		108

7.Talabalar bilimini baholash

№	Baholash turi	Topshiriqlar turi	Topshiriq soni	Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball	Jami
1	Joriy baholash	Seminar mashg'ulotlardagi ishtiroki	18	2	36
		TMI	4	1	4
2	Oraliq baholash	Test	1	5	5
		Nazorat ishi	1	5	5
		Konspekt	1	5	5
		Referat	1	5	5
3	Yakuniy baholash	Yozma ish	1	40	40
4	Jami		27		100

Izoh: Mustaqil ish topshiriqlarini baholash GulDU Kengashining 11-sonli bayoni bilan tasdiqlangan "Talabalar mustaqil ta'limini tashkil qilish tartibi" asosida baholanadi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$UB=JN+ON+YaN$$

bu yerda: JN – joriy nazorat; ON – oraliq nazorat; YaN – yakuniy nazorat.

8.ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - 2023-yil 30-aprel.
2. Shermuhamedova N. A. Falsafaga kirish.-Toshkent,Noshir, 2020. -460 b.
3. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa. - Toshkent: TMU, 2019
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa - o'quv qo'llanmasi. - Toshkent: 2019
5. Muhammadjonova L., Abdulla Sher, Shodimetova G. Axloq falsafasi. - Toshkent: Vneshinvestprom, 2023
6. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. - T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi, 2021.-424 b.
7. Sh.Kenjayeov, A.Assotullayev "Falsafa", o 'quv qo'llanma, Toshkent-2024-yil,

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mextiyev P. Filosofiya. Baku. Izd-vo "Vostok Zapad".2020.
2. Falsafa. Ahmedova M. Tahriri ostida.Toshkent, OFMJ, 2018
3. Emirova E.,Streltsova A. Vvedenie v filosofiyu.-Toshkent, Universitet, 2018.-68 b.
4. Leshkevich T.G. Filosofiya vvodno'y kurs. Rostov-na Dolnu, Ekspertnoe byuro. 2001

Axborot manbaalari

1. www.gov.uz- O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.ziyounet.uz- ilmiy manbaalar portali

9. Akademik talablar

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabat samimiy va beg'araz bo'lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o'quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi.